TOSHKENT SHAHAR
STATISTIKA BOSHQARMASI

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

## 2021- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar

# Toshkent shahrida kichik tadbirkorlik

**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**




**2019- yil**




**2020- yil**




**2021- yil**

2021- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi 46,2 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga 35,5 birlikni tashkil qildi.

2021- yilning yanvar-iyun oylarida **8766** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 25,1 foizga ko‘p demakdir.

## 2021- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirmalar savdoda **3433** ta, sanoatda **1183** ta, qurilish **879** ta, yashash va ovqatlanishda **515** ta, axborot va aloqada **477** ta, tashish va saqlash **289** ta tashkil etilgan.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

## 2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da

| | |
|---|---|
| Sanoat | 33,0 |
| Qurilish | 72,2 |
| Investitsiya | 46,4 |
| Savdo | 29,7 |
| Xizmatlar | 43,8 |
| Eksport | 16,6 |
| Import | 52,1 |

| | |
|---|---|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 93071 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni | 8766 |

2021- yilning yanvar-iyunida faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

## Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da



# Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar

## 2021- yil yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar , % da

- **Savdo** — 31,5%
- **Sanoat** — 17,5%
- **Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** — 1,1%
- **Qurilish** — 9,2%
- **Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar** — 7,5%
- **Tashish va saqlash** — 4,3%
- **Axborot va aloqa** — 4,5%
- **Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish** — 1,8%
- **Boshqa faoliyat turlari** — 22,8%




Yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Hududlar bo‘yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## 2021- yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha ulushi, % da

2021- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Chilonzor tumani– 12,9 %, Yunusobod tumani – 11,8 %, Mirzo-Ulug’bek tumani– 11,7 %, Olmazor tumani – 9,7 % va Shayxontohur tumani – 9,7 %, Uchtepa tumani – 8,9%, %, Yashnobod tumani - 8,7 % hissalariga to‘g‘ri keldi.



# Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

## Yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda




## Yangi tashkil etilgan korxonalar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkichga ega bo‘lgan tumanlar, birlikda




**Ma’lumot uchun: 2021– yilning yanvar-iyunida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko‘p salmog‘i, birlikda:**

Savdoda
3433 ta

Sanoatda
1183 ta

Qurilishda
879 ta

Yashash va ovqatlanishda
515 ta

# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

2021- yil yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 34,0 birlikni tashkil etdi.

Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), yanvar-iyun holatiga ko‘ra*




2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir tumanida 71,9 birlik, Yakkasaroy tumanida 67,1 birlik, Mirobod tumanida 51,8 birlik, Chilonzor tumanida 45,5 birlik, Sergeli tumanida 44,4 birlikni tashkil etgan.

2021– yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda)*



# Kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati haqida

**Toshkent shahrida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1000 aholiga, birlikda), 2021- yil yanvar-iyun holatiga ko‘ra***

**Eng yuqori ko‘rsatkich**
Bektemir tumani
- 71,9 birlik.

**O‘rtacha ko‘rsatkich**
Yakkasaroy tumani
- 67,1 birlik.

**Past ko‘rsatkich**
Yangi hayot tumani
- 12,1 birlik.

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga tumanlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Bektemir tumanida 71,9 birlik, Yakkasaroy tumanida 67,1 birlik, Mirobod tumanida 51,8 birlik, Chilonzor tumanida 45,5 birlik, Sergeli tumanida 44,4 birlikni tashkil qilgan.

**2021- yilning yanvar-martida har 1000 aholiga to‘g‘ri keladigan tadbirkorlik subyektlari sonini eng ko‘p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda ***




*Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda)*

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi






**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining YaHMdagi ulushi, % da**

2021- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi **49,5** %ni tashkil qildi. (2020- yilning yanvar-iyunida **52,6** %).

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 284,9 million AQSh dollarini yoki umumiy eksport hajmining 18,2 % ini tashkil etdi.






Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami eksportdagi ulushi

**2021 yilnig yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jami eksportdagi ulushi, % da**




2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko‘p ulushi Chilonzor tumanida – 2,9%, Yashnobod tumanida-2,5 %, Sergeli tumanida – 2,2 % Yunusobod va Olmazor tumanlarida – 1,3 % va eng kam ko’rsatkich Mirobod va Bektemir tumanlarida 0,6 % ni tashkil etdi.

# Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **2680,0** million AQSh dollarini yoki umumiy importning **49,9** % ini tashkil etdi.




**Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami importdagi ulushi**



2021- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jamiga nisbatan eng yuqori ulushi Mirobod tumanida – 6,4 %, Uchtepa tumanida – 6,3 %, Olmazor tumanida – 6,0 %, Chilonzor tumanida – 5,4 %, Yakkasaroy tumanida – 5,2 %. Eng past ko'rsatkich Yangi hayot tumanida – 1,1 % ni tashkil etdi.

**2021 yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **5113,1** milliard so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

**2021- yilning yanvar-iyunida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Yangi hayot tumani (13869,2 mlrd. so‘m), Chilonzor (11009,1 mlrd. so‘m), Olmazor (10401,9 mlrd. so‘m), Sergeli (9267,4 mlrd. so‘m) va Yunusobod (9011,8 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi. Yashnobod tumanida (2205,0 mlrd. so‘m) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo‘lib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi faoliyati




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoatdagi ulushi**

2021- yil yanvar-mart oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **32,0**% ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-mart holatiga hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi ulushi, % da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Yangihayot tumanida (86,8%), Chilonzor tumani (68,9%), Olmazor tumani (65,1%), Sergeli tumani (58,0%),Yunusobod tumani (56,4%),Yakkasaroy tumani (36,0%), Uchtepa tumani (30,1%), Mirzo-Ulug’bek tumani (26,9%), Bektemir (22,9%) va Shayxontohur (18,8%) tumani tashkil etdi. Yashnobod tumanida (13,8%) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past boʻlib qolmoqda.

# Kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi faoliyati




**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining savdodagi ulushi**

2021- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **7842,8** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **30,0** % ini tashkil etib. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **8,4**% ga pasayishi kuzatildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng koʻp chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Uchtepa tumani (479,3 mlrd. soʻm), Chilonzor (436,3 mlrd. soʻm), Yakkasaroy (393,1 mlrd. soʻm), Mirzo-Ulug'bek (336,2 mlrd. soʻm) va Shayxontohur (330,1 mlrd. soʻm) Yunusobod (329,8 mlrd. soʻm) viloyatlari hissasiga toʻgʻri keldi.

**2021- yilning yanvar- martida hududlar boʻyicha kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va oʻsish sur'ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi faoliyati




Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi ulushi

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **3835,9** milliard so‘mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **79,8**% ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **113,3** % ni tashkil qildi.



Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Yunusobod (398,9 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (365,4 mlrd. so‘m), Shayxontohur (347,9 mlrd. so‘m), Yashnobod (337,5 mlrd. so‘m) hamda Olmazor (332,2 mlrd.so‘m) tumanlarida qayd etildi.

**2021- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o‘sish sur’ati**



# Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi faoliyati






**Yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami xizmatlardagi ulushi**

2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 9881.7 mlrd. so‘mlik xizmatlar ko‘rsatildi yoki ko‘rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **44,0** % ini tashkil qildi va o‘sish sur’ati 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan **110,5** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p xizmatlar hajmi Mirzo-Ulug’bek tumani (1117,9 mlrd.so’m) Yunusobod tumani (1099,8 mlrd. so‘m), Chilonzor tumani (1095,6 mlrd. so‘m), Mirobod tumani (1044,2 mlrd.so‘m), Shayxontohur (1006,2 mlrd. so‘m), Yakkasaroy (945,6 mlrd. so‘m), va Uchtepa (831,0 mlrd. so‘m) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yilning yanvar- martida hududlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o‘sish sur’ati**



# 2021- yil yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarininig xizmatlar sohasidagi ko‘rsatkichlari

**2021- yilning yanvar-martida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da:**




Yuk tashishda




Yuk aylanmasida




Yo‘lovchi tashishda




Yo‘lovchi aylanmasida

2021- yil yanvar-mart oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 44,2 % ni tashkil etdi. 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 100,4 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 39,5 % ni tashkil etgan bo‘lib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 100,04 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 20,6 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 109,7 % ni tashkil qildi.

2021- yil yanvar-mart oylarida, avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi 24,4 % ni tashkil etib, 2020- yil yanvar-mart oylariga nisbatan o‘sish sur’ati 109,3 % ni tashkil qildi.

# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2021- yil I chorak yakunlariga ko‘ra, kichik korxona va mikrofirmalar o‘rtasida tanlanma kuzatuvlar o‘tkazildi.

Ushbu so‘rovnomada 4338 ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning 669 (15,4 %)tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. 3430 (79,1%) ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan 239 (5,5%)ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofir-malarning taqsimlanishi (ulushi) qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 0,3 % (15 ta), sanoatda – 17,0 % (736 ta), qurilishda – 7,3 % (318 ta) , savdoda – 34,3% (1489 ta), xizmatlar sohasida – 41,0 % (1780 ta)ni tashkil etdi.

**2021- yil I chorak bo‘yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi, % da**






# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, birlikda**




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko‘p kuzatuvida ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Chilonzor (556 ta), Yunusobod (526 ta), Mirzo-Ulug’bek (467 ta), Olmazor (455 ta), Uchtepa (422 ta) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keldi.

**2021- yil I chorak bo‘yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo‘yicha taqsimlanishi, % da**



# Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




**2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli bo‘yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da**




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2021- yilning I choragida, o‘tkazilgan kuzatuv natijalariga ko‘ra joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi qurilishlar sohasida 16,4 % ni, xizmatlar sohasida 15,8 % ni, qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi sohasida 13,3 %ni tashkil etdi.

Shuningdek iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi sohasida 86,7 % ni, sanoatda 80,9%ni, qurilishda 80,5 % ni tashkil etdi.

2021- yilning I choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarninig **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p ulushi savdoda 45,8%ni, sanoat saohasida 42,5%ni, xizmatlar sohasida 41,0 %ni tashkil etdi.

Shuningdek **yaqin 3 oydagi o‘zgarishlar istiqboli** bo‘yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko‘p ulushi qishloq, o’rmon va baliqchilik xo’jaligi sohasida 66,7%ni, qurilishda 57,0%ni xizmatlarda 55,6 %ni, tashkil etdi.